

**YOSHLAR HAYOTIDA VIRTUALLASHUV SABABLARI,
VIRTUAL O‘YINLARNING YOSHLAR ONGIGA
PSIXALOGIK TA‘SIRI**

Komilova Aziza Sunnatullaevna

O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

Ermamatova Gulbahor Ne‘matulla qizi

O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada virtual olamning yoshlar hayotida jadal sur‘atlarda ommalashishi va buning natijasida yoshlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan psixalogik muammolar haqida, bugungi kunda kundalik hayotimizda keng o‘rin egallayotgan virtual borliq va uning yoshlar tarbiyasiga ta‘sirining ayrim muammoli jihatlari hamda ularning oldini olish yuzasidan mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *Internet, virtual olam, psixalogik ta‘sir etish, virtual o‘yinlar, virtual madaniyat, virtuallashuv sabablari*

ABSTRACT

In this article, the rapid popularization of the virtual world in the life of young people and the psychological problems that may arise in young people as a result of this, some problematic aspects of the virtual existence that occupies a large place in our daily life and its influence on the education of young people are analyzed. as well as suggestions and comments regarding their prevention.

Key words: *Internet, virtual world, psychological impact, virtual games, virtual culture, reasons for virtualization*

Bugungi kunda jahonda sodir bo'layotgan global axborot o'zgarishlari va ularning yoshlar tarbiyasiga ma'naviy-axloqiy jihatdan ta'sirini psixologiya fani doirasida xalq etish zarurati tobora kuchayib bormoqda. Axborotlashtirish to'g'risida so'z yuritganda uning zamonaviy industriallashtirilgan jamiyatni qurshab olgan "uchinchi to'lqin" jarayoniga xosligi xususida e'tirof etish qabul qilingan. Global miqyosda yuz berayotgan mazkur jarayon turli jamiyatlarda umumiy jihatlarga ega bo'lib, turli mamlakatlarda o'ziga xos shaklda namoyon bo'ladi. Shiddat bilan ilgari borayotgan ushbu jarayon u yoki bu mintaqada turlicha bo'lsada, biroq uning mohiyati shubhasiz, nihoyatda muhim bo'lib qolaveradi. Axborotlashtirish so'ngi yuz yillikdagi ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni ifodalovchi shakli va samarasi bo'lib, bu har qanday taraqqiyot bosqichida bo'lgani kabi o'zining ikki xil xususiyatiga ega. Ulardan biri axborot texnikasi va texnologiyasini tarqatishda alohida texnik ahamiyat kasb etishi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev takidlaganidek "Ilg'or texnologiyalarning faol joriy qilinayotganligi va global axborot kommunikatsiya makoni taraqqiy etayotgani barcha jarayonlarni jadal va tez o'zgartirmoqda, qit'alar, mintaqalar, davlatlar va biznes darajasidagi hamkorlikning yangi shakllarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda". Ikkinchisi esa axborot texnologiyalarining jadallashuvi, globallashtirish jarayonining yoshlar ongiga qay yo'sinda ta'sir etayotganligidadir. Shuni unutmashimiz kerakki, tarbiyaning shakllanishida ijtimoiy muhit bilan birgalikda uning oilaviy munosabatlarda tarbiyalanganlik darajasi ham muhimdir. Buning uchun avvalo biz ota-onalarda virtual dunyo haqida to'g'ri tushunchalarni shakllantirishimiz, virtual madaniyat to'g'risida targ'ibot ishlarini tashkil etishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Yoshlar hayotida uchrayotgan virtuallashtirish sabablari, ularning haqiqiy hayotdan virtual olamga bog'lanib qolishi, virtual dunyoning yoshlar ongiga psixologik ta'sir etishi jarayonlarini o'rganish biz uchun juda muhimdir. Biz uchun kundalik hayotimizda, ish faoliyatimizda zarur bo'lgan biror bir ma'lumotni tezda topishimiz, kerakli axborotlarni qabul qilishimiz, mavzu yuzasidan savollarga javob topishimiz yoki boshqa birorta oddiy amallarni bajarishimiz, so'zlarning tarjimasini topishimizning biz uchun eng qulay yo'li bu internet tarmog'idan foydalanishdir. Insoniyat har doim o'zi uchun ancha oson bo'lgan yo'ldan yurishni afzal ko'radi. Bu

insonning psixik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan jarayon ya’ni, bajarishimiz kerak bo‘lgan kundalik vazifalarni, jismoniy jihatdan biroz osonroq usulda bajarish haqida o‘ylaganimizda, ongimiz odatdagiga qaraganda yaxshiroq ishlay boshlaydi, hamda dangasalikka moyillik yuzaga keladi. Yoshlarning virtual olamga bog‘lanib qolish sababi ham ulardagi dangasalikdir. Vaholanki, internet tizimining ijtimoiy tarmoqlarda odamni qiziqtiradigan hamma narsa bor. Hozirgi kunda O‘zbekistonliklarning aksariyati internetdan foydalanadi hususan bu jarayonda yoshlar ham anchagina ilg‘or. Yoshlarga internetdan to‘g‘ri foydalanish o‘rgatilmasa uning zarari foydadan ko‘p bo‘ladi. Shu o‘rinda internetning zararli tomonlariga to‘htalib o‘tish o‘rinlidir.

Internetning zarari:

- Real muloqotning virtualga aylanishi;
- Internet o‘yinlariga bog‘lanib qolish;
- Inson sog‘lig‘iga, ongiga bo‘lgan salbiy ta‘sir;
- Noxolis ma‘lumotlar;
- Psixalogik manipulyatsiya qiladigan saytlar (sektalar, terroristlar va hokazolar)

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, dunyo bo‘yicha internetdan eng ko‘p foydalanuvchilar aynan 21 dan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar hisoblanadi. Internet inson tafakkur tarziga, xulq- atvoriga ta‘sir ko‘rsatishda katta imkoniyatlarga ega. Internetning bugungi kundagi rivoji yoshlarga g‘oyaviy ta‘sir o‘tkazishning miqyosi va ko‘lamining keskin darajada o‘shishiga olib keldi. Dunyo aholisining katta qismini yoshlar tashkil etadi. Ularning endigina shakllanib kelayotgan ongiga nimani singdirilsa, o‘sha toshga o‘yilgan naqshdek muhrlanadi. Shuning uchun ham radikal oqimlar aynan yoshlarni tuzog‘iga ilintirishga harakat qiladi. Ulardagi ishonuvchanlik, kuch g‘ayrat, qiziqqonlik ularning maqsadini amalga oshirishda qo‘l keladi.

Virtuallashuv sabablari:

1. Bolalar juda yoshligidan uch, to‘rt yoshdan kompyuter o‘yinlarini o‘ynay boshlaydi. Besh yoshli bola kompyuter oldida biz, kattalarga qaraganda ancha yaxshi hotirjam va ishonchli o‘tiradilar. Bizga kitob o‘qish qanchalik odatiy bo‘lsa, ularga kompyuter oldida o‘tirish shunchalik odatiy hisoblanadi.

2. Virtual olam - bu kattalar va bolalar o'rtasidagi uzilish muhitidir, ular ortida avlodlar nizolari yotgan bo'lishi mumkin. O'sib kelayotgan avlod virtual olamlarga shu darajada bog'lanib qolganki ularning hayollarida yer yuzining barcha joylarini virtual olam qamram olgan.

3. Ota-onalar farzandlarini indamay o'tirib biror bir mashg'ulot bilan band bo'lishini, ularga halal bermasliklarini istab endigina ikki, uch yoshga kirgan bolajonlarga telefon tutqazishadi, turli xil mazmundagi multfilimlarni qo'yib berishadi, eng achinarli jihati shundaki bu multfilimlarning nimalarni yoritib berayotganligi, farzandining ongiga qay yo'sinda ta'sir etayotganligi bilan ishalari bo'lmaydi. Farzand shu yo'sinda katta bo'lar ekan u endi multfilimlardan voz kechadi, endigi novbat esa virtual o'yinlarga bo'ladi. Ota-onalar bu davrda farzandlariga nisbatan e'tiborli bo'lib qolishadi, do'stlari singari maktabda ilg'or o'quvchi bo'lishligini farzandlaridan talab qila boshlaydi. Kompyuter o'yinlariga berilib ketishning salbiy oqibatlarini nafaqat shu insonning o'ziga balki jamiyatga ham katta zarar yetkazadi. Avvalo bu ma'naviy zarar bo'lib, kompyuter o'yinlari jamiyatimizni ma'naviy buzuvchi botqog'iga botirib, insonni o'zlikni anglash baxtidan mahrum qilmoqda.

Kompyuter o'yinlari yoshlarning vaqtini o'g'irlamoqda. Internet – klublarda yoshlar ayni o'qib, ilm oladigan paytlarida vaqtlarini bekorchi o'yinlarga, ijtimoiy tarmoqlarda mutlaqo notanish shaxslar bilan qimmatli vaqtini tanishishga sarflayotgani tashvishli holat. Chunki internet va kompyuter o'yinlariga ro'ju qo'ygan o'smirlar hayotdan, ilm olish, kasb o'rganishdan va ma'naviy qadriyatlardan tamoman uzilib boradi. Kompyuterga ro'ju qo'ygan yoshlarning fikri-xayoli, butun vaqti, hatto uyqusi ham bemani o'yinlar bilan band bo'ladi. Oxir-oqibat bunday yoshlar tengdoshlari, yaqinlari va hatto ota-onasiga ham qo'l ko'tarishgacha borib yetadi. Bu esa jamiyatda ilimsizlik, johillikning tomir yoyishiga olib keladi. Sog'lom aql egalari internet qulayliklaridan o'z bilimlarini oshirish yo'lida to'g'ri foydalanadilar. Shuning uchun ham yoshlarda xabar va ma'lumotlarni tahlil eta olish malakasini hosil qilish zarur. Zero har qanday xabar ham to'g'ri va xolis bo'lavermaydi.

Xulosa qilib aytganda bugungi kun yoshlarini internitdan to'g'ri va maqsadli foydalana olish ko'nikmasini shakllantirishga alohida e'tibor berish kechikrilib

bo'lmaydigan eng muhim masaladir. Shunday ekan bu masalaga barcha ota-onalar, o'qituvchi va tarbiyachilar birdek mas'uliyat bilan qarashi lozimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash, yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T: O'zbekiston, 2017. B-25.
2. Kazin F. Идеологические уроки оранжевых технологий для России (BRC-info). 2006 yil, 14 iyul.
3. Qo'ng'irov I.H. Kungirova Sh.I. "Globallashuv sharoitida axborot tahdidlariga qarshi kurashishning zamonaviy texnologiyalarini yaratish muammolari" mavzusidagi xalqaro ilmiy amaliy konfirensiya materiallari T: 2020 yil, B-191.
4. Sunatullaevna, K. A. (2022). KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 518-521.
5. Sunatullaevna, K. A., & Qudratovna, N. F. (2022). INTERFAOL METODLARNI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 521-525.
6. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). SHAXS EMOTSIONAL INTELLEKTINING PSIXOLOGIK VA PSIXOFIZIOLOGIK JIXATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(2).
7. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). AGRESSIYA–OSMIRLARDA YUZAGA KELADIGAN TAJOVUZKORLIK RIVOJLANISHIGA TASIR ETUVCHI FENOMEN SIFATIDA. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).
8. Komilova, A., Husenova, M., & Xidirova, M. (2023). O'SMIR YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI KASB HUNARGA YO'NALTIRISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(1).

9. Aziza, K., & Xurshida, M. (2023). TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 419-422.
10. Aziza, K., & Mohinabonu, H. (2023). TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 87-89.
11. Komilova, A. S. (2023). O'QUV TARBIYA JARAYONINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA INDIVIDUAL YONDOSHUV. *GOLDEN BRAIN*, 1(31), 126-133.